



O‘TKIR INSULTDA ERTA RADIOLOGIK TASHXIS.

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti Radiologiya kafedrasida o‘qituvchisi,
asistent **Hamidova Mohinur Abrayeva***

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-son Davolash fakulteti talabasi
Abdug‘aniyeva Feruza Xasan qizi*

abduganiyevaferuza28@gmail.com

Dolzarbligi

Ishemik va gemorragik insultni tez va to‘g‘ri farqlash to‘g‘ri davolashni belgilash hamda bemorni saqlab qolish uchun zarur. KT gemorragik insultni tez aniqlashda, MRT esa erta ishemik insultni sezgirlik bilan aniqlashda muhimdir. Perfuzion va angiografik KT shoshilinch vaziyatlarda qon oqimi va tomir holatini baholash imkonini beradi.

Maqsad

O‘tkir insultda KT va MRT usullarining diagnostik samaradorligini, shuningdek perfuzion va angiografik tekshiruvlarning rolini baholash.

Materiallar va usullar

Tadqiqot 2025–2026 yillarda 50 bemor asosida o‘tkazildi.

Bemorlar: 45–80 yosh, erkak va ayol nisbatda deyarli teng.

Tekshiruvlar:

KT (kontrastsiz) – gemorragik insultni aniqlash.

MRT (DWI rejimi) – erta ishemik o‘choq va diffuziya cheklanishini aniqlash.



KT perfuzion – qon oqimi, qon hajmi, qonning o‘tish vaqtini aniqlash.

KT-angiografiya – tomirlar holatini ko‘rsatish, tromb va torayishni aniqlash.

Natija

Gemorragik insultda KT kontrastsiz usul bilan qon oq rangda (hyperdense) ekanligi aniqlanadi. Ishemik insultda MRT DWI rejimida erta bosqichda yaltrash (hyperintense) o‘choq va diffuziya cheklanishi ko‘rsatadi. KT perfuzion qon yetishmasligini, penumbra hududini aniqlaydi, KT-angiografiya tomir torayishi yoki tromb mavjudligini ko‘rsatadi. Statistik natija: MRT ishemik insultda sezgirligi ~95%, KT esa 30–40% (erta bosqichda). Shoshilinch davolash (tromboliz) qarori ushbu radiologik ma’lumotlar asosida qabul qilinadi.

Xulosa

KT va MRT o‘tkir insultni tashxislashda bir-birini to‘ldiruvchi usullardir. Gemorragik insultni tez aniqlashda KT kontrastsiz, ishemik insultni erta aniqlashda MRT DWI eng sezgir. Perfuzion va angiografik KT esa qon oqimi va tomir holatini baholashda qo‘llaniladi. Kompleks radiologik tekshiruv bemor prognozini yaxshilaydi va to‘g‘ri davolash strategiyasini belgilashga yordam beradi.

